XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Beshariq tumani, Oltin vodiy ko‘chasi 160-uy tel (73) 612-20-08

2022 - yil 30 - dekabr VI-77-171-11-153-K/22 Beshariq tumani hokimligi

Tumandagi ayrim Mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan qabristonlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish, shuningdek, ziyoratgohlar nomini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 20-iyuldagi 08-06195-sonli “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi ayrim MFY hududlarida joylashgan qabristonlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish, shuningdek, tumandagi ziyoratgohlar

nomini davlat reyestriga kiritish bo‘yicha “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi” kiritgan takliflari qabul qilinsin.

3. Tumanda nomi o‘zgartirilgan qabristonlar nomi 1-ilovaga, tumandagi mavjud ziyoratgohlar nomi ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlash uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 19-noyabr kungi “Tumandagi ayrim Mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan qabristonlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish, shuningdek ziyoratgohlar nomini davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida”gi VI-73-142-11-153-K/22-sonli qarori bekor qilinsin.

5. Tuman Statistika bo‘limi (O.Komilov), Kadastr agentligi Farg‘ona viloyat boshqarmasi, Beshariq tuman bo‘limi (M.Madaminov), Tuman Qurilish bo‘limi (Sh.Tursumatov) hamda tegishli mutasaddi davlat tashkilotlari amaldagi tartibda nom berilgan MFY hududida joylashgan qabristonlar va ziyoratgohlar nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (S.Abdullayev) nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan joylarda tegishli o‘zgartirish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilasin.

7. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga Yo‘l qurilish bo‘limi va Obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda hududlaridagi nom berilgan hamda nomlari o‘zgartirilgan qabristonlar va ziyoratgohlar bo‘yicha berilgan takliflar Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng ularning nomlari qayd etilgan metall ko‘rsatgichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

8. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

9. Mazkur qaror Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng tuman “Beshariq tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror ko‘rib chiqish va amaldagi tartibda munosabat bildirish

uchun Xalq deputatlari viloyat Kengashiga yuborilsin.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-77-171-11-153-K/22-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati, Beshariq tumani Mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan qabristonlar ro‘yxati

T/r	MFY nomi	Obyekt turi	Qabristonlar nomi	IZOH
1.	Toshariq MFY	qabriston	Toshariq MFY qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
2.	Rapqon MFY	qabriston	Bo‘stonbobo qabristoni	Gul bilan qoplangan,gul ekilgan maydon,gullab-yashnagan bog‘,bog‘-rog‘li obod yer,gullagan joy
3.	Gambay MFY	qabriston	Ko‘kto‘nliota qabristoni	Qabriston nazoratchisi ko‘k rangli to‘n kiyigan
4.	Nurafshon MFY	qabriston	Mushli qabristoni	Anbar hidli degan ma’noda
5.	Yangi Qashqar MFY	qabriston	Qashqar qishloq qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
6.	Ko‘rkam MFY	qabriston	Qorabo‘yin qabristoni	MFY hududidagi mavjud qishloq nomiga qo‘yilgan
7.	Qiyat-Sartol MFY	qabriston	Sartol qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
8.	Ariqboshi MFY	qabriston	Qayrag‘och qabristoni	
9.	Shoberdi MFY	qabriston	Shoberdi qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
10.	Navkat MFY	qabriston	Navkat MFY qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
11.	Soylabi MFY	qabriston	Soylabi MFY qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
12.	Beshkapa MFY	qabriston	Beshkapa qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
13.	Qiyali MFY	qabriston	Qiyali qishlog‘i qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
14.	Yuqori Tovul MFY	qabriston	Tovul qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
15.	Chimboy MFY	qabriston	Chimboy qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
16.	Kulolobod MFY	qabriston	G‘aribota qabristoni	G‘ariblarga yon bosadigan,ko‘maklashadigan
17.	Abduvay MFY	qabriston	Abduvay MFY qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
18.	Chorbog‘to‘rong‘i MFY	qabriston	Chorbog‘to‘rong‘i qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan

19.	Qum MFY	qabriston	Mangulik qabristoni	Abadiy ,umrbod,bu dunyodan ko‘zlarini mangu yumguncha uni eslash
20.	Nabi MFY	qabriston	Oqmozor qabristoni	Qoqirchek qishlog'da joylashgan Oq mozor qabristoni 1870-yilda tashkil etilgan.
21.	Yakkatut MFY	qabriston	Yakkatut MFY qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
22.	Adolat MFY	qabriston	1.Uzun qishloq qabristoni 2.Qoraqo‘yli qishloq qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
23.	Andarxon MFY	qabriston	Andarxon qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
24.	Eshon MFY	qabriston	Eshon qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
25.	Qoraqo‘yli MFY	qabriston	Qoraqo‘yli MFY qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
26.	Beshsari MFY	qabriston	Beshsari qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
27.	Baxmal MFY	qabriston	Yangi Baxmal qabristoni	Qishloq hududidagi qishloq nomiga qo‘yilgan
28.	Oltinko‘l MFY	qabriston	Ummatbobo qabristoni	Rivoyat qilishlaricha, Ummatbobo asli yaypanlik eshonlardan bo‘lib, o‘z davrida mashhur tabiblardan bo‘lgan
29.	Yangiqo‘rg‘on MFY	qabriston	G‘oyibota qabristoni	XIX asrlarda Xudoyorxon tomonidan qurilgan. Keyinchalik mahalliy aholi tomonidan hashar usulida qisman ta’mirlangan.
30.	Telov MFY	qabriston	Telov qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan
31.	Chorbog‘ MFY	qabriston	Mashhadi maydon qabristoni	Mashhadi maydon qadimda obod joy bo‘lib, bu yerdagi buloqdan qaynab chiqadigan zilol suv zam-zam bulog‘iga o‘xshatilgan.
32.	O‘ttizombor MFY	qabriston	O‘ttizombor qishloq qabristoni	Qishloq nomiga qo‘yilgan

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-77-171-11-153-K/22-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyati, Beshariq tumani Mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida joylashgan ziyoratgohlar ro‘yxati

T/r	MFY nomi	Obyekt turi	Amaldagi nomi	Ziyoratgohlar nomi
1.	Chorbog‘ MFY	ziyoratgoh	nomsiz	Mashhadi maydon
2.	Oltinko‘l MFY	ziyoratgoh	nomsiz	Ummat bobo
3.	Vorux-Dasht MFY	ziyoratgoh	nomsiz	Oqmozor bobo
4.	Navkat MFY	ziyoratgoh	nomsiz	Chilmaxram
5.	Nabi MFY	ziyoratgoh	nomsiz	G‘oyib ota